

HUDUDDA ASOSIY KAPITALGA KIRITILGAN INVESTITSIYALAR TAHLILI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI (NAVOIY VILOYATI MISOLIDA)

Bahronova Shaxodat Baxshulloyevna

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti

<https://orcid.org/0009-0008-0606-9398>

bakhronovashakhodat@gmail.com

Bozorov G‘ayrat O‘rinovich

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti

<https://orcid.org/0009-0005-9771-891X>

gayrat_1984@bk.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar iqtisodiy o‘shish va barqarorlikini ta‘minlashdagi ahamiyati keng yoritib berilgan. Navoiy viloyatida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar tahlil qilinib, ularni yanada takomillashtirish, foydalanish samaradorligini oshirish yo‘llari bo‘yicha taklif va xulosalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Asosiy kapital *Investitsion muhit, mahalliy va xorijiy investitsiyalar, , tavakkalchilik, iqtisodiy rivojlanish, investitsion jozibadorlik,, investitsion faoliyati, markazlashgan investitsiyalar*

Аннотация: В данной статье широко освещено значение инвестиций в основной капитал в обеспечении экономического роста и стабильности. Проанализированы инвестиции в основной капитал Навоийской области, даны предложения и выводы по путям их дальнейшего совершенствования, повышения эффективности использования.

Ключевые слова: *Основной капитал Инвестиционная среда, внутренние и иностранные инвестиции, риск, экономическое развитие, инвестиционная привлекательность, инвестиционная активность, централизованные инвестиции.*

Abstract: This article broadly covers the importance of fixed capital investments in ensuring economic growth and stability. Fixed capital investments in Navoi region are analyzed, proposals and conclusions are given on ways to further improve them and increase the efficiency of their use.

Key words: *Fixed capital Investment environment, domestic and foreign investment, risk, economic development, investment attractiveness, investment activity, centralized investment.*

Kirish

Hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida aholining daromadlarini oshishi uchun jamiyat farovonligini yaxshilanishida, sanoat korxonalariga kiritilayotgan miqdori va tarkibiga bog'liq. Shu munosabat bilan Navoiy viloyatiga jalb qilingan investitsiya mablag'larini jalb etishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Mamlakat iqtisodiyotining samarali rivojlanish darajasi ishlab chiqarishning nafaqat miqdoriy oshishi, balki sifati hamda raqobatbardoshligi bilan ham belgilanadi. Barcha tarmoqlar barqaror taraqqiyotini ta'minlashning asosiy usullaridan biri investitsiyalarni jalb qilishdir. Asosiy kapitalga investitsiyalar, bu — foydani oshirish maqsadida asosiy vositalarni sotib olish, modernizatsiya va rekonstruksiya qilish, qurish hamda boshqa sa'y-harakatlar uchun qo'shimcha xarajatlar evaziga korxonalar aktivlari va balansi qiymatining oshishi hisoblanadi.

Ushbu jarayon korxonalarining qo'shimcha mablag'larni investitsiyalashi orqali o'rta va uzoq muddatli istiqbolda ishlab chiqarishni oshirish, undan keladigan foydani ko'paytirishga qaratiladi. An'anaviy tamoyilga ko'ra, asosiy kapitalga qo'yilgan investitsiyalarning tez muddatda qaytishini kutmaslik kerak, ammo ular uzoq vaqt davomida barqaror foyda kelishining kafolati bo'lib xizmat qiladi.

Investitsiya muhitini yaxshilashdan maqsad investitsiya salohiyatini oshirish uchun zarur va maqbul shartsharoitlarni yaratish, investitsiya faoliyatini jadallashtirish va pirovardida, iqtisodiyotni yuksaltirish, ijtimoiy muammolarni hal etish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkoniyatlarini yaratishdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 1-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF5495-son Farmoni¹, 2019-yil 8-yanvardagi "Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va iqtisodiy siyosat samaradorligini oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5614 son Farmonlaridan² qonun hujjatlariga mos kelib chiqarilgan vazifalarni amalga oshirish maqsadida tadbirkorlik faoliyatini jadal rivojlantirish, xususiy mulkchilikni har tomonlama himoya qilish va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash borasida beshta ustuvor soha bo'yicha 42 ta aniq chora-tadbir amalga oshirilishini nazarda tutuvchi Kompleks chora-tadbirlar dasturi tasdiqlangan.

Biznes yuritish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, innovatsion tadbirkorlik va yuqori texnologiyalarga asoslangan sanoatni rivojlantirish, shuningdek, Navoiy viloyati hududida mineral xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash hamda ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'yicha qo'shimcha quvvatlarni tashkil etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 21 aprelda "Navoiy viloyatini innovatsion, yuqori texnologiyalarga asoslangan,

¹ Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 02.08.2018 yil., 06/18/5495/1611-son.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 yanvardagi "Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va iqtisodiy siyosat samaradorligini oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5614 son Farmoni qonun hujjatiga mos.

eksportga yo‘naltirilgan va import o‘rnini bosadigan ishlab chiqarishlar uchun erkin iqtisodiy zona sifatida belgilash chora tadbirlari to‘g‘risida” farmoni³ qabul qilingan. Navoiy viloyati hududida innovatsion, yuqori texnologiyalarga asoslangan, eksportga yo‘naltirilgan va import o‘rnini bosadigan mahsulot ishlab chiqarish maqsad qilib quyilgan.

Adabiyotlar sharhi.

D.G‘.G‘ozibekov o‘zining ilmiy asarlarida investitsiyaning mohiyatini moliyaviy kategoriya sifatida talqin etishga erishgan. U investitsiyalarning mazmuni aniq va ishonchli manbalardan mablaglar olish, ularni asosli holda safarbar etish, risklar darajasini hisobga olgan holda kapital qiymatini saqlash va ko‘zlangan samarani olishdan iborat bo‘ladi deb ta‘rif bergan.[1]

Investitsiyalar mazmun – mohiyatiga prof. N.H. Haydarov quyidagi ta‘rifni beradi: Investitsiya – bu mulk shaklidan qat‘iy nazar, tadbirkorlik asosida faoliyat ko‘rsatayotgan jismoniy va yuridik shaxslar yoki davlatning iqtisodiy va ijtimoiy samara olish maqsadida o‘z boyliklarini qonun doirasida bo‘lgan har qanday investitsiyalarning mohiyatiga nisbatan berilgan. Iqtisodiyotda investorlarning yetarli darajada mavjud emasligi, shu bilan birga ularning samarali joylashtirilmasligi qator muammolarni keltirib chiqaradi. Bu avvalo tanglik holatlarini vujudga kelishi, iqtisodiy o‘tish va boshqa jabhalarning holatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.[2]

Rossiya Federatsiyasining iqtisodchi olimlari ijobiy natijaga erishilishini ta‘minlashga xizmat qiluvchi ta‘rifni berib o‘tishga, ya‘ni —investitsiyalar – pulni saqlash, ko‘paytirish yoki ijobiy miqdordagi daromadni ta‘minlashni hisobga olgan holda uni joylashtirish mumkin bo‘lgan har qanday vosita sifatida ifodalanadi deb L.Igoshina ta‘rif bergan [3]

Prof. A.Neshitoy esa investitsiyalarning mazmunini-foйда olish yoki boshqa samaralarga erishish maqsadida o‘z yoki o‘ziga mamlakatning turli tarmoqlariga, tadbirkorlik loyihalari, ijtimoiy-iqtisodiy dasturlar hamda innovatsiya loyihalarini amalga oshirishga yo‘naltirilgan pul mablag‘larini (kapitalni) uzoq muddatga joylashtirishdir deb tavsiflagan [4]

Davlatning milliy xususiyatlaridan kelib chiqib investitsiya atamasining iqtisodiy mohiyatini yana bir qator rus olimlari tomonidan o‘ziga xos talqin etilgan. MDH mamlakatlari tadqiqotchilari orasidan rossiyalik mutaxassis T. T. Frolova [5] ning fikriga ko‘ra: investitsiya bu xususiy sektor va davlat tomonidan mamlakatning ichida va mamlakatdan tashqarida iqtisodiyotning turli tarmoqlari va qimmatbaho qog‘ozlarga uzoq muddatli qo‘yiladigan kapitaldir.

³ O‘zbekiston respublikasi prezidentining Farmoni Navoiy viloyatini innovatsion, yuqori texnologiyalarga asoslangan, eksportga yo‘naltirilgan va import o‘rnini bosadigan ishlab chiqarishlar uchun erkin iqtisodiy zona sifatida belgilash chora-tadbirlari to‘g‘risida

“Investitsiya muhiti” va “investitsiya iqlimi” sinonim tushunchalar sifatida ishlatiladi. Bu xususda iqtisodchi-olimlardan D.G‘ozibekov va T.Qoraliyev tomonidan quyidagi fikrlar bildirilgan: “Investitsiya iqlimi juda keng ma’noda ishlatiladigan tushuncha bo‘lib, investor tomonidan hisobga olinadigan barcha muammo va masalalarni mujassamlashtiradi. Investor tomonidan ma’lum bir mamlakatga kapital ajratishning qulay va noqulay tomonlari belgilanadi, shu bilan bir qatorda, o‘z kapitalini kiritmoqchi bo‘lgan mamlakat mafkurasi, siyosati, iqtisodiyoti va madaniyatiga katta ahamiyat beriladi” [6].

E.Xazanovchining ilmiy ishlarida iqtisodiy taraqqiyotni ta’minlashda xorijiy investitsiyalarning roli, iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish shakllari, qulay investitsiya muhitining chet el sarmoyalarini jalb qilishdani roli tadqiq qilingan hamda xorijiy sarmoyalarni faol jalb qilish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan [7].

Yu.Leonovanning ilmiy asarlarida Rossiy Federatsiyasi hududlarida investitsion faollikni ta’minlash va xorijiy kompaniyalarning investitsiyalarini jalb qilish yo‘llari va afzalliklari yoritilgan [8]. Johnson and Sherraden, Remundlarining ta’kidlashicha Moliyaviy savodxonlik q moliyaviy imkoniyatlar, moliyaviy kompetentlik (financial capability) - bu mavjud bilimlardan kelib chiqqan holda investitsiya kiritishga harakat qilish qobiliyati hamda shunchaki yashab qolish yoki to‘laqonli hayotni ta’minlash maqsadida iqtisodiy tizimda harakat qilish imkoniyatlari, kompetentsiyalari[9,10]

METODOLOGIYA

Asosiy kapitalga kiritilayotgan investitsiyalarni tahlil qilish va ularni takomillashtirish yo‘llarini o‘rganish uchun bir necha xil usullardan foydalanish mumkin. Investitsiyalar tahlili hududda amalga oshirilgan asosiy kapital (ya’ni, sanoat, infratuzilma, transport, energetika va boshqa sohalarda)ga kiritilgan sarmoyalarni o‘rganishga qaratilgan. Ushbu tahlil quyidagilarni o‘z ichiga olishi mumkin. Hududga kiritilgan investitsiyalarning o‘shish sur’ati, turlari, va umumiy hajmini tahlil qilish. Investitsiyalarning iqtisodiy natijalarini (masalan, ishlab chiqarish hajmi, ish o‘rinlari yaratish, eksport o‘sishi) baholash. Investitsiyalarni moliyalashtirish manbalarini tahlil qilish: kreditlar, grantlar, tashqi va ichki sarmoyalar.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning rentabelligini, rentabellikni o‘lchash uchun NPV (net present value), IRR (internal rate of return), payback period (to‘lov davri) kabi metodlarni qo‘llash. Investitsiyalarning hududdagi iqtisodiy o‘shish, bandlik, daromadlarni oshirish kabi ta’sirini baholash. Hududga kiritilgan investitsiyalarning ijtimoiy va ekologik natijalarini, masalan, aholi salomatligi, ekologik xavfsizlik va infratuzilmaning barqarorligini baholash metodlari qo‘llanildi.

Hududda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarni tahlil qilish va ularni takomillashtirish yo‘llarini o‘rganish jarayoni strategik qarorlar qabul qilishda muhim ahamiyatga ega. Yuqorida keltirilgan metodologiya va tahlil jarayonlari hududdagi

investitsiya muhiti, iqtisodiy o‘shish va barqaror rivojlanishni ta'minlashga yordam beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI.

Innovatsion ishlanmalarni yuqori samaradorligiga erishishda moliyalashtirish muhim hisoblanib, Innovatsion faoliyatning samaradorligini va yuqori iqtisodiy natijalarni ta'minlaydi.

Sanoat korxonalarida innovatsion faoliyatni moliyalashtirish murakkab, ammo muhim jarayondir. Buning uchun davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlik, innovatsion moliyalashtirish manbalarini kengaytirish, maxsus dasturlar va soliq imtiyozlarini joriy etish, kreditlash tizimini yaxshilash hamda investitsiya muhitini yaxshilash kabi strategiyalar zarur. Innovatsion faoliyatni moliyalashtirish iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi va raqobatbardoshligini oshirish uchun asosiy shartlardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

1-jadval

Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar

Joriy narxlarda mlrd so‘m

	2019	2020	2021	2022	2023	2024- yil yanvar- sentabr 1)
Navoiy viloyati	17 646,3	15 688,4	15 020,1	17 958,1	26 398,6	23 429,8
Navoiy sh.	6 242,8	4 586,3	3 803,0	5 150,0	5 370,1	3 891,3
Zarafshon sh.	763,9	1 627,9	1 700,2	2 469,2	3 950,3	1 383,5
G`azg`on sh.		5,0	87,0	136,4	373,1	187,1
<i>tumanlar</i>						
Konimex	1 214,3	1 687,6	1 227,2	492,7	1 045,5	881,0
Qiziltepa	748,4	521,5	497,5	911,1	1 099,3	570,9
Navbahor	303,0	353,4	415,0	560,7	748,6	493,4
Karmana	3 847,5	1 616,7	2 267,4	2 228,3	3 675,4	4 252,9

Nurota	378,3	336,9	459,9	309,0	218,8	706,5
Tomdi	2 909,3	2 770,9	3 371,8	3 357,7	6 182,2	8 292,5
Uchquduq	628,9	1 240,4	269,1	271,0	591,0	1 238,7
Xatirchi	609,9	941,8	922,0	1 072,0	1 144,3	532,0


Manba: Navoiy statistika boshqarmasining ma'lumotlari asosida

2024 yil yanvar-sentyabr oylarida viloyatning asosiy kapitalini ko'paytirishga 23 429,8 mlrd.so'm miqdorida investitsiyalar kiritildi va o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 50,4 foizni tashkil qildi. Investitsiyalar hajmi YaHM tarkibidagi ulushi 7,0 foizni tashkil qilib, 2019 yil yanvar-martga nisbatan o'sish sur'ati 145,3 foizni tashkil qildi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning o'zlashtirilgan hajmi bo'yicha tumanlar kesimida Tomdi tumani yetakchilik qilmoqda. Ushbu hududda jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 35,4 foizi o'zlashtirildi. Shuningdek, Karmana tumani jami investitsiyalar hajmidan 18,2 foizini, Navoiy shahri 16,6 foizini tashkil etmoqda. Nurato tumani 7,2 foizni, Zarafshon shahar 5,9 foizni tashkil etdi. Uchquduq tumani esa 5,3 foizga tog'ri kelgan. Konimex tumani, Qiziltepa tumani Xatirchi tumani va Navbahor tumanlarida investitsiyalar eng kam o'zlashtirilgan bo'lib, har birining shahardagi ulushi 1,2 foizi va 0,9 foizini tashkil etdi.

1-rasm

(2018-2022 yillarda O'zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar dinamikasi, milliard so'm)



Manba: Uzstat ma’limotlari. IV. Investitsiya va qurilish ishlari 1- bo’lim.


Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar

Ushbu ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, 2018–2022 yillarda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi yildan-yilga ortib borgan. Agar 2018 yilda mazkur ko‘rsatkich 124 trillion 236,1 milliard so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, keyingi yillar davomida uning o‘shish hajmi 145 trillion 626,2 milliard so‘mga oshgan. Ularning minimal qiymati 2018 yilda kuzatilgan va indikatorning maksimal qiymati 2022 yilda 269 trillion 857,5 milliard so‘mga teng bo‘lgan.

Bu investitsiyalar faolligini tavsiflaydi. Ularning o‘rtacha qiymati 207 trillion 952,7 milliard so‘mni hamda 2023 yilda 285 trillion 468 milliard so‘mni tashkil qilgan iqtisodiy va ijtimoiy sohalarni rivojlantirish uchun jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 56,6 trillion so‘m o‘zlashtirilgan bo‘lib, bu o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 103,1 foizga o‘sganini ifoda etadi.

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, islohotlarni chuqurlashtirish, yangi ishlab chiqarish quvvatlari va asosiy fondlarni yaratish, tarmoq va sohalarda amaldagi texnika va texnologiyalarni yangilash, ularni qo‘llab-quvvatlash investitsion jarayonlarning to‘g‘ri va samarali amalga oshirilishi bilan uyg‘unlashsa, ko‘zlangan maqsadga erishiladi. Bu, o‘z navbatida, transport-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma loyihalarini amalga oshirishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini olib borishga alohida e’tibor qaratish bilan ham uzviy bog‘liq.

O‘zbekiston Respublikasida barcha tarmoqlarni rivojlantirish, yuqori samaradorlikka erishish uchun 2024 yilda jami moliyalashtirish manbalaridan 352,1 trln. so‘m o‘zlashtirilgan bo‘lib, 2023 yilga nisbatan ancha oshganligini ko‘rishimiz mumkin.



1-rasm Manba: Uzstat ma'limotlari. IV. Investitsiya va qurilish ishlari 1-bo'lim. Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar

Statistik tahlilni o'tkazish maqsadlarida asosiy kapitalga investitsiyalar quyidagi asosiy kesimlarda shakllanadi: qo'yilma turlari, texnologik, takror ishlab chiqarish tarkiblari, iqtisodiy faoliyat turlari, moliyalashtirish manbalari bo'yicha.

Yil yakunida O'zbekiston Respublikasi kafolatidagi xorijiy davlatlardan olingan kreditlar hisobidan 21,2 trln. so'm xorijiy investitsiyalar jalb qilinib, o'tgan yilga nisbatan anchagina o'sgan. Ularning jami hajmidagi ulushi esa 0,3 % punktga ko'payib, 6,0 % darajasida qayd etildi.

Xulosa va takliflar.

Hududga ko'proq investitsiya kiritish uchun birinchi navbatda investitsion muhitni yaxshilash lozim. Investitsiya kiritishni rag'batlantirish uchun soliq bo'yicha keng imtiyozlar yaratib berish kerak. Bu esa yangi texnologiyalarni joriy etish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash va innovatsion loyihalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Hududdagi iqtisodiy zona orqali chet ellik va ichki investorlarni jalb qilish. Bunday zonalarda soliq imtiyozlari, infratuzilma ta'minoti, va sarmoyadorlarga qulay sharoitlar yaratish orqali iqtisodiy faollikni oshirish mumkin. Transport va logistika tarmoqlarini, shuningdek, energiya ta'minoti tizimini modernizatsiya qilish. Bu, ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish va investitsiyalarni samarali boshqarish imkoniyatini beradi.

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning samaradorligini oshirish uchun davlat tomonidan grantlar, subsidiya va kreditlar ajratish. Ayniqsa, energiya samaradorligi va ekologik toza texnologiyalarni joriy etish yo'lida moliyaviy qo'llab-quvvatlash muhim.

Yangi texnologiyalar va innovatsion yechimlarni hududga olib kirish uchun tashqi investorlar va ilmiy markazlar bilan hamkorlik o'rnatish. Hududda investitsiya jarayonlarida shaffoflikni ta'minlash uchun raqamli platformalar va monitoring tizimlarini joriy etish zarur. Bu investorlar uchun ishonchni oshirishga va korrupsiyani kamaytirishga yordam beradi.

Turizm va qishloq xo'jaligi sektorlariga investitsiyalarni jalb qilish. Bu sohalar hududning iqtisodiy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Asosiy kapitalga investitsiyalarni samarali boshqarish va ularni takomillashtirish hududning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Investitsiya muhiti, infratuzilma, moliyaviy va texnologik qo'llab-quvvatlash, shaffoflik va raqamli transformatsiya jarayonlarini kuchaytirish zarur.

Investitsiyalarning samaradorligini oshirish uchun davlat va xususiy sektor hamkorligini mustahkamlash kerak. Investitsiyalarni jalb qilishda shaffoflik va ijtimoiy

mas'uliyatni ta'minlash muhim. Tashqi va ichki investorlarga ishonchni oshirish va ularga samarali investitsiya qilish uchun qulay sharoitlar yaratish kerak.

Hududda investitsiyalarning turli sohalarga tarqatilishi va raqobatbardosh imkoniyatlarni yaratish orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlanib va yangi ish o'rinlari yaratilib investitsiyalarning ahamiyati yanada oshadi. Bu o'z navbatida hududning uzoq muddatli rivojlanishiga hissa qo'shadi.[11]

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarni samarali boshqarish va ularni takomillashtirish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar, nafaqat hududiy, balki mamlakat iqtisodiyoti uchun ham muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Adabiyotlar /Literatura/Reference

1. G_ozibekov D.G_. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. T.: —Moliyal nashriyoti. 2003. 26 bet
2. Haydarov N.H. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida korxonalar investitsion faoliyatidagi moliya-soliq munosabatlarini takomillashtirish masalalari. I.f.d ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. T.: 2003. 29 b.
3. Igoshina L.L. Investitsii. Uch. pos. – M.: «Economist», 2005. – S. 23.
4. Neshitoy A.S. Investitsii: Uchebnik. – 4-ye izd. – M.: «Dashkov i K0 », 2006. – S. 13.
5. T.A.Frolova. Ekonomicheskaya teoriya: konspekt leksiy. Taganrog: TTI YUFU, 2009.
6. G'ozibekov D.G', Nosirov E.I. O'zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish. Risola. - T.: Iqtisod-moliya, 2007. - 92 b.
7. Xazanovich E.S. Inostrannye investitsii. Uchebnoe posobie. 3-ye izd., pererab. - M.: KnoRus, 2013. - 311 s.
8. Leonova Yu.Yu. Regionalnye interesy i faktory investitsionnoy aktivnosti zarubejnyx kompaniy v Rossii. Monografiya. - M.: LENAND, 2015. - 195 s.Artemeva S.S., Mitroxin V.V. Otsenka finansovoy gramotnosti rossiyskoy i zarubejnoj molodeji i rekomendatsii po yee povыsheniyu. / INTEGRASIYa OBRAZOVANIYa. T. 22. № 1. 2018. C. 46.
9. Chaplinska A. "Otsenka finansovyx znaniy molodeji v Latvii". Bankausyu vesshk, L1STAPAD 2019. C. 47.
10. Uzbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari tugrisida. 2021 yil 13 aprel, PF-6207-son. - www.lex.uz
11. Baxshulloyevna, B. S. (2024). KORXONANING INNOVATSION ISHLANMALARINI MOLIYALASHTIRISHNI BAHOLASH USULLARINI QIYOSIY TAHLIL QILISH. TADQIQOTLAR. UZ, 50(1), 183-190.
12. Bahronova, S. B. (2024). RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR-INNOVATSION IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSI: AI (sun'iy intellect), virtual

- reallik (VR) va kengaytirilgan reallik (AR), content, Interaktiv o‘quv platformalari, Raqamli mentorlar va yordamchilar. Indexing, 1(1).
13. Baxshulloyevna, B. S. (2024). KORXONANING INNOVATSION ISHLANMALARINI MOLIYALASHTIRISHNI BAHOLASH USULLARINI QIYOSIY TAHLIL QILISH. TADQIQOTLAR. UZ, 50(1), 183-190.
 14. Abdinabiyevna, S. S., & Bekpo‘lotjonovna, X. J. A. (2024). KICHIK BIZNES KORXONALARI FAOLIYATIDA BOSHQARUV SAMARADORLIGIGA ERISHISHNING YO‘LLARI. TADQIQOTLAR. UZ, 50(1), 45-51.
 15. Bahronova, S. (2023). MOLIYAVIY XIZMATLARDAN FOYDALANISHDA MOLIYAVIY SAVODXONLIKNING AHAMIYATI. Приоритетные направления, современные тенденции и перспективы развития финансового рынка, 250-252.
 16. Atamuradov S. Инновацион лойиҳаларни венчур фондлари орқали молиялаштириш ва унда учрайдиган таваккалчилик турлари //Economics and Innovative Technologies. – 2023. – Т. 11. – №. 1. – С. 24-35.
 17. Атамурадов Ш. А. Инновацион фаолиятни ривожланишга йўналтирилган инвестициялар таҳлили //International Journal of Advanced Technology and Natural Sciences. – 2022. – Т. 3. – №. 4. – С. 19-24.